

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINING KONSTITUTSIYAVIY- HUQUQIY ASOSLARI

Turdiyeva Bibixojar Faxriddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi

telefon raqam (+99899)4469864

Mahalliy davlat hokimiyati organlari hududiy boshqaruvning muhim elementi bo'lib, ularning faoliyati demokratik boshqaruvni mustahkamlash va fuqarolarning davlat ishlaridagi ishtirokini ta'minlashga qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqishga qaratilgan. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqiy maqomi va vakolatlarini aniqlash, Mahalliy boshqaruv organlarining faoliyati bilan bog'liq muammolarni aniqlash, Taklif va tavsiyalar ishlab chiqish orqali hududiy boshqaruv samaradorligini oshirish vazifalari belgilandi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati hududiy boshqaruvning samaradorligi, fuqarolar ishtiroki va demokratik tamoyillarni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Konstitutsiya, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonun va ilgari chop etilgan ilmiy ishlar mahalliy hokimiyat organlarining vazifalari, vakolatlari va nazorat mexanizmlari bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga, amaliyotda byudjet mustaqilligi, ochiqlik va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish bo'yicha bo'shliqlar mavjud.

Amaliyotda mahalliy kengashlarning nazorat vakolatlari yetarli ishlamaydi, hokimlik faoliyati bo'yicha ochiqlik past, byudjet mustaqilligi cheklangan va fuqarolarning ishtiroki yetarli emas. Bu holatlar hududiy boshqaruv samaradorligini pasaytiradi va fuqarolarning davlat ishlariga to'liq jalb qilinishini cheklaydi.





1. Mahalliy kengashlarning nazorat vakolatlarini kuchaytirish.
2. Hududiy byudjet mustaqilligini oshirish.
3. Hokimlik faoliyatining ochiqligini ta'minlash.
4. Fuqarolarni boshqaruv jarayoniga keng jalb qilish.
5. Mahalliy boshqaruv xodimlarining malakasini oshirish va sertifikatlash tizimini joriy etish kabi takliflar keltirildi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari demokratik boshqaruv va hududiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. adqiqot hududiy boshqaruvning faqat konstitutsiyaviy-huquqiy asoslariga e'tibor qaratadi, moliyaviy va siyosiy amaliyotlarni chuqur tahlil qilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonun.
3. Islomov Sh. "O'zbekiston Respublikasida mahalliy boshqaruv tizimi", Toshkent, 2021.
4. Abdullaev D. "Hududiy boshqaruv va demokratik tamoyillar", Toshkent, 2020.